

QASHQADARYO VILOYATINING MEHNAT RESURLARI VA ULAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Qo'chqorova Gulasal
Qarshi Davlat Universiteti
gulasalqochqorova57@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatining mehnat resurslari va ularning shakllanishi bosqichlari va jarayonlari haqida ma'lumot berilgan. Viloyat aholisining demografik ko'rsatkichlari, o'sishi, tabiiy ko'payishi va mehnat resurslari soni hamda ularning hududiy tarqalishi bayon etilgan. Shu bilan birga mehnat resurslariga doir masala va muammolar tahlili ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aholi, demografik vaziyat, mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi, ishsizlik, migratsiya.

Аннотация: В статье представлены сведения о трудовых ресурсах Кашкадарьинской области, а также описаны этапы и процессы их формирования, прироста, естественного воспроизводства и численности трудовых ресурсов и их территориальное распределение населения региона. При этом показан анализ вопросов и проблем, связанных с трудовыми ресурсами.

Ключевые слова: население, демографическая ситуация, трудовые ресурсы, работающее население, безработица, миграция.

Abstract: The article provides information about the labor resources of Kashkadarya region and the stages and processes of their formation. Demographic indicators, growth, natural reproduction and number of labor resources and their territorial distribution of the population of the region are described. At the same time, the analysis of issues and problems related to labor resources is shown.

Key words: population, demographic situation, labor resources, working population, unemployment, migration.

Kirish: Zamonaviy sharoitda mehnat resurslaridan samarali foydalanishga erishish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Ushbu muammoni hal qilish mamlakat darajasida ham, uning mintaqalarida ham mehnat resurslarining miqdoriy va sifat xususiyatlarining reproduktiv jihatlari bilan o'zaro bog'liqdir. Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: shakllantirish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish (foydalanish). Shu bilan birga, reproduktiv jarayonlarni tahlil qilish ularning shakllanish bosqichini tahlil qilishdan boshlanishi kerak. Chunki bu bosqichda iqtisodiyotni ishchi kuchi bilan ta'minlash imkoniyati yaratilgan. Demografik vaziyat mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun aholining barcha yosh guruhlari

mehnat salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun mehnat resurslarini shakllantirish bosqichidagi demografik jihatlarni batafsil o'rganish zarur. Mehnat resurslarini shakllantirishda demografik omillarni tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi aholi soni hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatining demografik ko'rsatkichlari uning hududiy kesimida aholi tug'ilishi va tabiiy ko'payishi darajalaridagi farqni ochib beradi. Qashqadaryo viloyatidagi yangi demografik vaziyat aholining yuqori sur'atlar bilan o'sayotganligini ko'rsatadi. Viloyatimizda aholi boshqa viloyatlarga qaraganda ancha tez o'smoqda. Bu esa o'z navbatida bolalar va o'rta yoshdagi aholining ko'payishiga sabab buladi.

1990-2020-yillar oralig'ida Qashqadaryo viloyatidagi demografik jarayonlarni qisqacha tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, viloyatda kechgan ma'lum o'zgarishlarda ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillar muhim o'rin egallaydi. Xususan, ko'zdan kechirilayotgan davrda voha demografiyasi respublikaning boshqa hududlaridan aholining o'sish sur'ati, tug'ilish va o'limning kamayishi, farzand ko'rish ketma-ketligini qisqarishi, aholi zichligi va joylashuvidagi o'zgarishlar, o'rtacha umr ko'rish darajasining ortishi, shahar aholisining o'sishi qishloq aholisiga nisbatan sekinlashuvi, migratsiyaning faollashuvi bilan izohlanadi.

Keyingi yillar maboynida, ya'ni 1989-2014-yillar oralig'ida aholi soni ancha tez ko'payib boradi. Masalan, Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70 foiz, Kosonda 4,75 foiz, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan. Nisbatan pastroq demografik o'sish Dehqonobodda 2,40 foiz, Qarshida 2,50 foiz va Kasbi tumanlarida 2,50 foiz kuzatiladi. Shu o'rinda e'tirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq bo'lib, tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab oilalar ko'chib kelgan.

Yuqori mintaqa Shahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari ko'p jihatdan respublikamizning aholisi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voha va vodiylariga o'xshab ketadi. Chunonchi, bu yerda tug'ilish koeffitsienti har 1000 kishi aholiga 25,1 kishini tashkil etadi. Eng yuqori daraja 2000 yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar. Yakkabog' tumanida ham tug'ilish ancha yuqori – 26,7 foiz. Ayni vaqtda umumiy tug'ilish koeffitsienti Mirishkor, Qarshi shahri va tumanida pastroq. 2013 yilda ham Chiroqchi tumani tug'ilish koeffitsienti bo'yicha ajralib turadi (30,0 foiz). Qolgan qishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi, viloyat markazi Qarshi shahrida tug'ilish 21,5 promilleni tashkil etadi...

Mehnat resurslari tumanlar kesimida tahlil qilinganda, yuqori ko'rsatkichlarda Chiroqchi, Koson, Qamashi va Shaxrisabz tumanlari, eng ko'p iqtisodiy faol aholi soni Chiroqchi tumanida (146,0 ming kishi) va Qarshi shahrida (130,6 ming kishi) ga

kuzatildi. Iqtisodiy faol aholi sonining eng kam ko'rsatkichlari Mirishkor (54,7 ming kishi) va Muborak (46,2 ming kishi) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hozirgi kunga kelib Qashqadaryo viloyati aholisi ko'rsatkichlari mana shu ko'rinishga ega 2023 yil yanvar-mart yakunlari holatiga ko'ra viloyatda yashovchi doimiy aholi soni 3499,1 ming nafarni tashkil qilib, yil boshiga nisbatan 0,5% ga ko'paygan. Jumladan, viloyat aholisining 50,7% - erkaklar, 49,3% - ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Aholining 56,1%i – mehnatga layoqatli yoshdagilar, 34,2% - mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 9,7% - mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida doimiy aholi soni solishtirilganda yuqori ko'rsatkich va o'sish sur'ati Koson (306,3 ming nafar), Qarshi shahri (291,0 ming nafar) va Qamashi (288,2 ming nafar) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari viloyatda ko'chib kelganlar – 2,2 ming, ko'chib ketganlar – 3,9 ming nafarni tashkil etgan. Qashqadaryo viloyatining mehnat ko'rsatkichlari raqamlarda (21/11/2022):

- Mehnat resurslari soni – 1817,5 ming kishi
- Mehnat bilan band bo'lgan aholi soni – 1220,2 ming kishi
- Bandlik darajasi – 62,7 %
- Ishsizlar soni – 121,0 ming kishi
- Ishsizlik darajasi – 9,0 %
- Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi soni – 476,3 ming kishi.

Mehnat resurslari shakllanishiga ko'pgina omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bular orasida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Ma'lumki, mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish ham, uning moddiy mahsuli ham bo'lmaydi. Mehnat resurslarining soni va sifati aholining soni va yosh-jins tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida aholining tabiiy harakatlanishiga bog'liq bo'ladi. Aholining yosh va jins tarkibining o'zgarishi bir-biri bilan uzviy bog'langan mehnatga layoqatli aholi va u orqali mehnat resurslarining shakllanishiga, mehnat resurslarining shakllanishi esa mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Mehnat resurslari tarkibi iqtisodiy faol va iqtisodiy nofaol aholidan tashkil topgan.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi)ga – mehnat faoliyatining daromad keltiruvchi har qanday turi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek ishga joylashtirishga muhtoj ish bilan ta'minlanmagan aholi kiradi. Mehnat resurslarining soni, sifati va tarkibi uch harakat turi ta'sirida shakllanadi. Mehnat resurslarining soniga aholining tabiiy takror barpo etilishi ko'proq ta'sir ko'rsatsa, uning sifat ko'rsatkichiga aholining ijtimoiy va hududiy (migratsion) harakatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Ozbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni va mintaqalarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni talab qiladi. Chunki,

mintaqalar iqtisodiyotini ko'tarmasdan, islohotlarni chuqurlashtirmasdan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas. Aynan mintaqalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish suratlarini, unga xos xususiyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bunda mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar, demografik vaziyat va inson resurslari, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi 1998 yilda qabul qilingan amaldagi qonun aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda ko'plab talablarga mos kelmay qoldi. Xususan, u tadbirkorlikni rag'batlantirish, o'zini o'zi ish bilan band qilish, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish va axborot tizimlaridan samarali foydalanishni o'zida aks ettirmasligi, shuningdek bandlik sohasidagi mavjud muammolarni tizimli hal qilishga huquqiy imkon yaratmasligini e'tiborga olgan holda 2020- yil 20- oktyabrda O'RQ-642-sonli «Aholi bandligi to'g'risida»gi yangi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 2021-yil 21-yanvardan kuchga kirdi. Ushbu Qonunning maqsadi aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholini ish bilan ta'minlash mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishining muhim sharti va aholi turmush darajasini oshirishning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik muammolarini bartaraf etishda mintaqaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosida yangi tabiiy resurslarni ishga solinishi, yangi sanoat zonalarini tashkil etilishi, transport tizimining rivojlantirilishi aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasini ko'tarilishiga olib keluvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi O'RQ-642-son " Aholi bandligi to'g'risida" gi Qonuni,20.10.2020 yil .<https://lex.uz/5055690>
2. Sauxanov J.K ,Utemuratova R.B "Aholining tarkibi" Fan va amaliyot byulleteni " elektron ilmiy jurnali, Moskva No 5,-2017 -B, 8-19.
3. Omonullayev, O. (2024, May 13). QASHQADARYO VILOYATINING AGRAR SOHASINI RIVOJLANISHI VA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH DINAMIKASINING TAHLILI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11185812>
4. Og'abek O. IQLIM O'ZGARISHLARINING SUV OBYEKTLAGA TASIRLARINING TAHLILI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 11. – C. 115-118.
5. Hamidullayevich O. O. JAHON AHOLISINING TABIIY VA MEXANIK KO'PAYISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONI SHUNINGDEK SHAHARLAR RIVOJLANISHI //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 466-468.
6. Sagradov A.A Iqtisodiy demografiya :darslik.Moskva:Nauka,2005,B.B.
- 7.Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi <https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika>.